28 APREL — BUTUNJAHON MEHNATNI MUHOFAZA QILISH KUNI!

Jumayeva Dilobar Kenjayevna
Buxoro neftni qayta ishlash zavodida
Mehnatni muhofaza qilish va kasbiy xavfsizlik bo‘yicha yetakchi mutaxassis
Ro’ziyev Aliakbar To’raquliyevich
Buxoro neftni qayta ishlash zavodi
Asosiy ishlab chiqarish sexi boshlig’I o’rinbosari

Annotatsiya. Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni tarixi 1989-yilga borib taqaladi, o‘shanda Qo‘shma Shtatlar va Kanadada kasaba uyushmalari va ishchilar tomonidan ish joyida jarohatlangan yoki halok bo‘lganlarni xotirlash uchun "Halok bo‘lgan ishchilarni xotirlash kuni" o‘tkazilgan. Oradan 10 yil o‘tib, dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida odamlar va mansabdor shaxslar e’tiborini jalb etishga yo‘naltirilgan mehnatni muhofaza qilish bilan bog‘liq turli muammolar bo‘yicha aksiya va tadbirlar o‘tkazilmoqda

Kalit so’zlar: mehnat muhofazasi, texnika xavsizligi, yo’riqnomalar, xavfsizlik tizimi.

Аннотация. Всемирного дня охраны труда берет свое начало в 1989 году, когда профсоюзы и трудящиеся в Соединенных Штатах и Канаде провели «День памяти павших работников», чтобы почтить память тех, кто получил травмы или погиб на рабочем месте. Спустя 10 лет в более чем 100 странах мира проводятся кампании и мероприятия по различным вопросам охраны труда, направленные на привлечение внимания населения и должностных лиц.

Ключевые слова: охрана труда, техническая безопасность, инструкции, система безопасности.

Annotation. The history of World Day for Safety and Health at Work dates back to 1989, when trade unions and workers in the United States and Canada held a "Day of Remembrance for Workers Who Died" to remember those injured or killed in the workplace. Ten years later, more than 100 countries around the world hold campaigns and events on various issues related to occupational safety and health, aimed at attracting the attention of people and officials.

Keywords: labor protection, technical safety, instructions, safety system.

2025-yilgi Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kunida asosiy e’tibor raqamlashtirish va sun’iy intellektning (AI) ishchilar xavfsizligi va salomatligiga ta’siriga qaratiladi.

ISSN 3030-3907

Ushbu mavzu turli xil yangi texnologiyalarni mehnat xavfsizligi va sog'lig'i ob'ektivi orqali ko'rib chiqadi, jumladan:

• Ilg'or robotlar

• Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish

• Ekzoskeletlar

• Uchuvchisiz havo vositalari (PUA)

• Narsalar interneti (IoT)

• Virtual va kengaytirilgan reallik

Bunda vazifalarni avtomatlashtirish, katta ma’lumotlar tahlili, intellektual raqamli tizimlar va sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan xodimlarni boshqarish kabi yangi ish usullarini ham yoritib, faoliyat doirasida ishchilar xavfsizligi va salomatligiga ta’siriga qaratiladi.

Yangi texnologiyalar, shuningdek, yangi ish turlarining paydo bo'lishiga olib keldi, masalan, raqamli platformalarda ishlash va masofaviy ish / gibrid ish / telekommunikatsiya kabi faoliyatlarda inson salomatligiga ta’sir etuvchi faktor (omil) lar aniqlanadi. Ta’sir etuvchi omillar oqibatlari identifikatsiya qilinishi va muayyan kriteriylar doirasida baholanishi kerak. Baholash usullari turlicha bo‘lsa ham barcha usullarda xulosaga kelish uchun omillr ta’sirining ehtimolligi darajasi inobatga olinadi.

“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ ning sanoat xavfsizligi sohasi hamda integratsiyalashgan sifat menejmenti, ekologik va energetik menejment, sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta’minlash menejmenti tizimlari sohasidagi siyosatida o‘zining asosiy vazifasi etib O‘zbekiston Respublikasi iste’molchilarini bir maromda sifatli neft mahsulotlari bilan ta’minlash va eksportni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun iste’molchilarning qoniqishlarini doimiy ravishda oshirib borish yo‘li bilan yetkazib berilayotgan neft mahsulotlari va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatliligiga ishonchini ta’minlash, davlat, tarmoq va jamoat dasturlarini amalga oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi yoqilg‘i-energetika kompleksining rivojlanishida faol ishtirok etish, barqaror iqtisodiy o‘sish bilan aksiyadorlarning jamiyat istiqboliga bo‘lgan ishonchini to‘la qozonish, kafolatlangan xom-ashyo bazasiga erishish, ichki

ISSN 3030-3907

salohiyatdan foydalangan holda integratsiyalashgan menejment tizimlarini doimiy takomillashtirib borish kabi strategik yo‘nalishlarni belgilaydi.

Faoliyat doirasida bunday strategik yo‘nalishlarni samarali amalga oshirishda albatta salohiyat muhim ahamiyat kasb etadi:

- Biznes jarayonlarning samarali ishlashi orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash;
- “Ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimlarning hayoti va sog‘lig‘ining ustivorligi” tamoyiliga sodiqlik;
- Iqlim o‘zgarishiga ta’sirni kamaytirish uchun ifloslanishlarning oldini olish va jamiyat faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish;
- Ekologik samaradorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- Jamiyat xodimlari hamda ular oilasining ijtimoiy va hayot darajasini oshirish;
- Xodimlarni integratsiyalashgan menejment tizimlariga jalb qilish maqsadida ularni ruhlantirish va layoqatini oshirish;
- Jamiyat va shaxsni jamiyatning xavfli ishlab chiqarish ob’yektlaridagi avariyalar, noxush hodisalar va ularning oqibatlaridan himoyalash;
- Muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va yoqilg‘i-energetika resurslaridan oqilona foydalanish orqali energiya samaradorligini doimiy yaxshilab borish;

Jamiyat faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish maqsadida innovatsion yechimlarni izlash va joriy etish kabi vazifalarni amalga oshirishda, xodimlar uchun qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, xavfli ishlab chiqarish ob’yektlarida avariya sodir bo‘lganda yetkaziladigan zarar uchun javobgarlikni majburiy sug‘urtalash, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, zaruriy resurslar va ma’lumotlar bilan to‘liq ta’minlash, ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001, AS 9100 xalqaro standartlar talablariga muvofiq integratsiyalashgan menejment tizimlarining samaradorligini doimiy oshirib borishni zimmasiga oladi.

Boshqaruv tizimlarining samarali ishlashi va muvaffaqiyati korxona rahbari boshchiligida ishlab chiqarishning barcha darajalarida rahbarlik mavqeiga ega bo‘lgan xodimning etakchiligiga, ishtirokiga hamda bugungi kun talabi raqamlashtirish va sun’iy intellektualdan maqsadli foydalanish bilan bog‘liqdir. Rahbar- tizimdagi xavf-xatar va imkoniyatlar natijalarini inobatga olishi, bunda sog‘lik muhofazasi, mehnat xavfsizligi va ekologik menejmentni biznes-jarayonlarga, strategik yo‘nalishlarga va qaror qabul qilish jarayoniga integratsiya

ISSN 3030-3907

qilishi, ratsionalizatorlik va sun’iy intellekt orqali kashf etilayotgan imkoniyatlarni hamda ular faoliyatini boshqa muhim jihatlari bilan muvofiqlashtirishi, shuningdek ishlab chiqarishga tadbiq etishi mumkin.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarishdagi shikastlanishlarning oldini olish, kasb kasalliklari bo‘yicha ogohlantiruvchi chora- tadbirlarni amalga oshirish, ish joylarida inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida doimiy aktuallashtirib boriladigan jarayon bu ish joylarida xavf va ular bilan bog‘lik risk darajalarini kamaytirishga qartilgan chora tadbirlardir (1-jadval). Shu jumladan raqamlashtirish va sun’iy intellektning mehnat muhofazasi va inson salomatligiga ta’siri yuzasidan xavf va risklar ko‘zda tutilgan. Bunda ishchi xodimlarning malakasi, kompetentligi va tajribasini oshirish bilan bir qatorda bilimlarini sinash bo‘yicha monitoring olib borish, ratsionalizatorlikka yondashish, doimiy axborot almashinuvi vositalaridan samarali foydalanish va shu kabi risklarning ta’sirini kamaytirish choralari aniqlanadi va doimiy takomillashtirib boriladi.

Литература

1. Артиков А.А., Карабаев Д.Т. Компьютерное моделирование пути движения частицы аппарата пневмосепарации // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2023.
2. Разработка математической модели исследования процесса теплообмена между воздухом и яйцом при инкубировании. Журнал Universum технические науки. Москва: 2024. Выпуск: 4(121), Часть 6 , С.15-17.
3. Разработка математической и компьютерной модели исследования процесса теплообмена между горячим воздухом и яйцом. Журнал Фан ва технологиялар тараққиёти. Бухорф: 2024. №6.
4. Wikipediya.com

ISSN 3030-3907